AQSH MILLIY XAVFSIZLIK STRATEGIYASI XORIJIY OLIMLAR VA AQL MARKAZLARI NIGOHIDA

Yahyobek Erkinboyev
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xalqaro munosabatlari yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada AQSh Milliy xavfsizlik strategiyasi o‘rganilgan va tahlil etilgan. Tahlilni yanada chuqurroq va obyektiv qilish uchun hujjatda keltirilgan har bir mintaqa yoki davlatdagi aql markazlari, olimlarning tahlillari o‘rganib chiqilgan. Maqola AQSh Milliy xavfsizlik strategiyasini chuqur tahlil etish va hujjatga nisbatan turli davlat va mintaqalarning reaksiyalarini ham tahlil etishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: Milliy xavfsizlik strategiyasi (National security strategy – NSS), aql markazlari (think tank), G‘arbiy yarimshar (Western Hemisphere), kritik minerallar.

KIRISh Tramp ikkinchi bor AQSh hukumatini egallagan so‘ng, ko‘p o‘tmasdan AQSh milliy xavfsizlik strategiyasini butun ommaga havola etdi. 2025-yilning 4-dekabr sanasida ushbu milliy xavfsizlik strategiyasi ommaga taqdim etilgandan buyon ko‘plab soha vakillari xususan, xalqaro munosabatlar bo‘yicha ko‘plab expertlar, akademiklar va shu bilan birgalikda turli aql markazlarining ham e’tibor va muhokama markazida bo‘lib keldi. AQSh milliy xavfsizlik strategiyasi 33 betdan iborat bo‘lsa, shundan yarmi AQShning milliy maqsad va manfaatlariga qaratilgan (taxminan 15 beti). Bu galgi AQSh milliy xavfsizlik strategiyasi oldingilariga qaraganda farqi – yanada qisqa, lo‘nda va mazmunli ekanligidadir deydi Michael E. O‘Hanlon [1] nufuzli Brookings [2] aql markaziga bergan ma'lumotida (21-bet). Milliy xavfsizlik strategiyasining kirish qismidan to mintaqalar uchun ajratilgan boblargacha barchasi AQShning o‘ziga bag‘ishlangan. Masalan “Amerika Qo‘shma Shtatlari kelgusi o‘n yilliklarda dunyodagi eng kuchli, eng boy, eng qudratli va eng muvaffaqiyatli davlat bo‘lib qolishini ta’minlash uchun mamlakatimizga dunyo bilan qanday munosabatda bo‘lishimiz haqida aniq, izchil va yo‘naltirilgan strategiya kerak. Buni to‘g‘ri amalga oshirish uchun barcha amerikaliklar aniq nima qilish kerakligini bilishlari kerak.” deyiladi AQSh milliy xavfsizlik [3] kirish qismida. Hujjatni asosan ikki qismga bo‘lishimiz mumkin: birinchi qismida AQShning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad, vazifa va ayrim xatolarini ta’kidlab o‘tgan bo‘lsa; ikkinchi qismida esa hujjatning eng qaynoq qismi ya’ni mintaqalar uchun qanday munosabatda bo‘lishi, ularning qanday ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan.

Maqolada AQSh o‘zi uchun oldiga qo‘ygan maqsad va vazifa sifatida qanday ishlarni rejalashtirganini, keyinchalik esa mintaqalar uchun bildirilgan munosabatlarni AQSh hukumati nuqtayi nazaridan va turli aql markazlari shu bilan birgalikda, mutaxasislarning ma’lumotlarini tahlil qilgan holda turli aspektlar orqali ba’yon etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Avvalo, maqolani yozish jarayonida eng muhim adabiyotlardan biri – AQSh milliy xavfsizlik strategiyasi [3] o‘rganilgan, shu bilan birgalikda AQShning o‘zida faoliyat olib boruvchi turli bir nechta nufuzli aql markazlari ayniqsa Brookings [2] aql markazi va CSIS [4] – aqliy markazining ma’lumotlari tahlil qilingan. Bundan maqsad esa AQSh milliy xavfsizligiga nisbatan AQShlik yohud, shu mamlakatda faoliyat olib boruvchi mutaxasis expertlaring fikrlarini bilish edi. Bundan tashqari, Yevropa aql markazi ECFRning [5] (European council on foreign relations) ma’lumotlari tahlil ham qilingan. Osiyo mintaqasidan, xususan Xitoydan ham Xitoy Xalq Universiteti (Renmin University of China)

qoshidagi RDCY aql markazining [6] ham tahliliy ma’lumotlari o‘rganilgan. Maqolada yanada chuqurroq tahlil uchun Afrika mintaqasi haqida turli aql markazlari olib borgan tadqiqotlar bor xususan, Stimson Center [7], FPRI (foreign policy research institute) [8] kabi aql markazlarining ma’lumotlari tahlil qilingan. Metodlarga kelsak, maqolada asosan qiyosiy tahlil (comparative analysis), hamda hujjatlarni tahlil qilish (document analysis) metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR

AQShning 2025-yilgi Milliy xavfsizlik strategiyasi oldingi strategiyalardan keskin farq qiladi: u qisqa, aniq va “America First” tamoyiliga qat’iy asoslangan hujjat bo‘lib, global hukmronlikdan voz kechib, faqat AQShning haqiqiy milliy manfaatlariga e’tibor qaratadi. Hujjatning asosiy xulosasi shundaki, AQSh kelgusi o‘n yilliklarda dunyodagi eng kuchli, eng boy va eng muvaffaqiyatli davlat bo‘lib qolishni ta’minlash uchun ichki kuchlarini (iqtisodiyot, sanoat, energiya mustaqilligi, harbiy qudrat) mustahkamlashi va tashqi siyosatni shu manfaatlar atrofida qayta yo‘naltirishi kerak.

Strategiya AQShning oldingi xatolarini ochiq tan oladi: globalizm, erkin savdo va xalqaro institutlar AQShni zaiflashtirdi, o‘rta sinfni vayron qildi, sanoatni chet elga ko‘chirdi, migratsiyani nazoratsiz qoldirdi va ittifoqdoshlarni mudofaa yukini AQShga yuklashiga imkon berdi. Prioritetlar aniq belgilangan: birinchi navbatda G‘arbiy yarimshar (Western Hemisphere, “Trump Corollary to the Monroe Doctrine” orqali Xitoy, Rossiya va Eronning ta’sirini cheklash), keyin Osiyo (ayniqsa Xitoy bilan iqtisodiy raqobat va harbiy to‘qnashuvning oldini olish), so‘ngra boshqa mintaqalar.

AQSh milliy xavfsizlik strategiyasini [3] chuqur tahlil qilish uchun uni turli qismlarga bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi, huddi hujjatning o‘zi ham turli qismlarga bo‘lib yozilganidek. Hujjatni tahlil etish uchun uni qismlarga bo‘lib tahlil qilish bo‘yicha turfa hil va murakkab variantlar bo‘lishi mumkin ammo, menimcha uni ikki qismga bo‘lib o‘rgangan yoki tahlil qilgan yaxshiroqdir. Rasmiy hujjatning birinchi qismini AQShning o‘zi uchun atalgan qismi bo‘lib unda turfa hil maqsadlar, vazifalar va ayrim xatolar eslangan bo‘lsa. Ikkinchi qismida esa asosan mintaqalar uchun munosabatlar bayon etilgan. Demak hujjatning birinchi qismi ya’ni birinchi o‘n besh betidagi asosiy mazmun quyidagicha:

AQSh oldingi yillarda olib borgan global siyosati sabab o‘zining ichki kuchini asta-sekin yo‘qota boshlagan degan qarash ilgari suriladi. Ya’ni Amerika dunyoda tartib saqlash, boshqa davlatlarni himoya qilish va global tizimni boshqarishga haddan tashqari ko‘p kuch sarflab yuborgan. Natijada esa oddiy amerikaliklarning manfaatlari ikkinchi o‘ringa tushib qolgan deb hisoblanadi. Hujjatda aytilishicha, Sovuq urush tugagandan keyin AQSh o‘zini dunyoning yagona yetakchisi sifatida ko‘rdi va deyarli hamma hududlarda faol aralashuv siyosatini olib bordi. Lekin bu siyosat kutilgan foydani bermadi. Aksincha, sanoat korxonalari boshqa davlatlarga ko‘chib ketdi, ishlab chiqarish zaiflashdi, o‘rta sinfning iqtisodiy holati yomonlashdi va Amerika ko‘plab qimmat urushlarga tortildi. Globalizm va erkin savdo siyosati Amerika ichki iqtisodiyotiga zarar yetkazgan. Shu sababli Trampning “America First” (Amerika birinchi) siyosati oldingi xatolarni tuzatishga qaratilgan deb ko‘rsatiladi. Bu yerda asosiy tamoyil juda oddiy: AQSh tashqi siyosati birinchi navbatda Amerika manfaatlariga xizmat qilishi kerak, ya’ni boshqa davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar emas, avvalo amerikaliklarning xavfsizligi, iqtisodiyoti va farovonligi ustun turadi.

Hujjatda chegaralar masalasiga ham katta urg‘u berilgan. Noqonuniy migratsiya AQSh uchun ichki xavf sifatida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga sanoatni qayta tiklash, energiya mustaqilligini kuchaytirish va texnologik ustunlikni saqlash strategiyaning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki iqtisodiy qudrat bo‘lmasa, Amerika global raqobatda

ham kuchsizlanadi degan qarash mavjud. Harbiy masala ham markaziy o‘rinda turadi. Kuchli armiya va yadroviy salohiyat AQSh xavfsizligining asosiy kafolati sifatida ko‘riladi. Ayniqsa G‘arbiy yarimshar masalasi alohida ahamiyatga ega. Bu orqali AQSh o‘ziga yaqin hududlarda boshqa yirik davlatlarning kuchayishini cheklashni maqsad qiladi. Ya’ni Xitoy yoki Rossiyaning Amerika yaqinidagi hududlarda katta ta’sirga ega bo‘lishiga qarshi turish kerak degan fikr ilgari suriladi.

Yevropa. AQSh milliy xavfsizlik strategiyasida Yevropa Ittifoqi uchun yozilgan satrlar dunyo hamjamiyatida juda ko‘p muhokamaga sabab bo‘ldi. Bir so‘z bilan aytganda transatlantik ittifoq munosabatlari oldingidan ancha farq qiladi. Agar jarayonga umumiy nazar tashlaydigan bo‘lsak, Yevropa bilan munosabatlardagi inqiroz asosan Tramp davriga to‘g‘ri keladi. Negaki, D.Tramp AQSh hukumatida prezidentlik uchun ikkinchi bor saylangandan so‘ng avvaliga Kanada, keyinchalik esa Grenlandiyani o‘zi boshchilik qilayotgan mamlakatga qo‘shimcha shtat sifatida qo‘shib olish haqidagi bayonotlarini ko‘paytira boshladi. Bu esa tabiiyki Yevropa ittifoqi bilan munosabatlarda tushunmovchilik hosil qilar edi. Milliy xavfsizlik strategiyasiga qaytsak, AQSh rasmiylari asosan Yevropa muammolarini odatda yetarli harbiy xarajatlar yo‘qligi va iqtisodiy to‘xtab qolish ya’ni rivojlanmaslik bilan izohlashga urunishgan. Bunda haqiqat bor, ammo Yevropa ittifoqining haqiqiy muammolari bundan ham chuqurroq. Yevropa global YaIMdagi ulushini keskin yo‘qotmoqda – 1990-yildagi 25% dan hozirgi 14% gacha tushgan deyiladi AQSh milliy xavfsizlik strategiyasida [3]. Bunga sabab – milliy va transmilliy reglamentlar ya’ni qat’iy qoidalar. Bundan tashqari, massaviy migratsiya, tug‘ilish darajasi keskin pasayishi va madaniy o‘zlikni yo‘qotish tufayli Yevropa o‘z sivilizatsiyasiga bo‘lgan ishonchni (civilizational self-confidence) yo‘qotmoqda. Hujjatda esa bu jarayon (civilizational erasure) sivilizatsiyaning o‘chirilishi yohud yo‘q bo‘lib ketishi deb baholanadi.

Hujjatda Yevropa svilizatsiyasining yo‘q bo‘lib ketishi haqidagi qismi eng ko‘p muhokama qilingan, shu bilan birgalikda o‘zining eng yaqin ittifoqchilaridan hurmatsizlik sifatida baholandi. Yevropada faoliyat olib boruvchi eng mashhur aql markazlaridan biri European Council on Foreign Relations (ECFR) – butun Yevropaga oid tashqi siyosat va xavfsizlik masalalariga ixtisoslashgan aql markazi aynan mana shu hujjat bo‘yicha o‘z tahliliy ma’lumotlarini e’lon qilgan. Bu tahliliy materialni Yevropa ittifoqidan deyarli rasmiy javob sifatida talqin qilsak bo‘ladi. Tahliliy postdagi eng asosiy xulosa yoki ma’nolardan biri AQSh Yevropani kuchsiz deb ataydi, ammo lekin biroq, bunga hech qanday yechim (solution) bermaydi. Yoki Germaniya kansleri esa uni “qabul qilib bo‘lmas” [9] deb atashidan ham AQShning milliy xavfsizlik strategiyasi umuman Yevropaga ma’qul kelmaganini bilishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda ECFRning tahliliy materialida AQSh hukumatining milliy xavfsizlik strategiyasida bir nechta xatolarga yo‘l qo‘yilgani haqida ham ma’lumotlar bor. Masalan “birinchisi prezidentning o‘zi ham takrorlagan fikr Qo‘shma Shtatlar Yevropaga “sivilizatsiyaning yo‘q bo‘lib ketishi” (civilisational erasure) xavfidan qutulishga yordam beradi, buni esa Yevropadagi o‘ta o‘ng siyosiy nomzodlarni (ideal holda immigratsiya masalasida AQSh bilan bir xil fikrda bo‘lgan yoki “radikal chap”ga qarshi bo‘lganlarni) qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiradi.

Strategiya Yevropaning jahon YaIMdagi ulushining qisqarishini migratsiya, zaif demografiya va o‘ziga ishonchni yo‘qotish bilan izohlaydi. Bundan ham yomoni, Yevropa rahbarlari o‘z xalqlariga yomon xizmat qilmoqda, chunki ular “demokratiyaning asosiy tamoyillarini oyoq osti qilib, muxolifatni bostirmoqda”. Agar immigratsiya siyosati yoki so‘z erkinligi haqiqatan ham jiddiy muammo bo‘lsa, Vashington Yevropa bo‘ylab tobora ko‘payib borayotgan bir qator hukumatlar – jumladan, Belgiya, Daniya, Germaniya, Gretsiya,

Irlandiya va Italiya bilan osongina hamkorlik qilishi mumkin edi. Bu mamlakatlar immigratsiya va boshpana berish siyosatini ancha qattiqroq cheklovchi choralar ko‘rmoqda. Germaniya boshpana va immigratsiya qoidalarini yanada qattiqlashtirish bo‘yicha yangi choralar ko‘rmoqda; Daniya esa Yevropadagi eng qattiq immigratsiya siyosatlaridan biriga ega. Darhaqiqat, Buyuk Britaniya bilan birgalikda u boshqa Yevropa mamlakatlarini qat’iyroq boshpana qoidalari tarafdori bo‘lishga undamoqda. Ammo buning o‘rniga, Tramp administratsiyasi ochiqdan-ochiq Yevropa Ittifoqiga qarshi partiyalarni qo‘llab-quvvatlash signalini bermoqda. Bunday qilish orqali Vashington Yevropa Komissiyasining kuchini – kelgusidagi AQSh–Yevropa muzokaralarida savdo, texnologiya va qoidalashtirish bo‘yicha yagona pozitsiyani taqdim etish qobiliyati va qonuniyligini zaiflashtirishga urinmoqda.

Amerikaning Yevropadagi asosiy maqsadi immigratsiyaga qarshi kurashda yordam berish emas, balki Bryusselning geosiyosiy aktor sifatidagi kuchini zaiflashtirishdan iboratdir” deyiladi tahlilda [10]. Hujjatdan asosiy xulosa sifatida Trampning Milliy Xavfsizlik Strategiyasi Yevropa uchun geoiqtisodiy tuzoqdir. ECFR ekspertlari (xususan, Celia Belin va Majda Ruge) Tramp administratsiyasining 2025-yilgi Milliy Xavfsizlik Strategiyasini Yevropa uchun geoiqtisodiy tuzoq deb baholaydi. Ularning fikricha, milliy xavfsizlik strategiyasi hujjati Yevropaning real muammolarini (iqtisodiy zaiflashuv, demografiya, migratsiya) tan olgandek ko‘rinsa-da, aslida noto‘g‘ri tahlil va chalg‘ituvchi da’volarga asoslanadi. Strategiya Yevropani “sivilizatsiyaviy o‘chirilish”, “madaniy tanazzul” va strategik chalkashlikda ayblaydi. Shu bilan birgalikda, AQSh Yevropaga “yordam berish” va “sivilizatsiyani saqlash” ni bahona qilib, ochiqdan-ochiq Yevropa ichki ishlariga aralashmoqda. U o‘ta o‘ng partiyalarni qo‘llab-quvvatlab, Yevropa Ittifoqi (Bryussel) ichidagi bo‘linishlarni kuchaytirmoqda. Xulosa o‘rnida ECFRning umumiy bahosi: “Trampning milliy xavfsizlik strategiyasi transatlantik munosabatlarni liberallar asosidagi ittifoqdan transaksion (faqat manfaatga asoslangan) va raqobatli munosabatlarga aylantirmoqda. Bu Yevropa uchun “uyg‘otuvchi qo‘ng‘iroq” bo‘lishi mumkin, ammo ayni paytda katta xavf tug‘diradi. Yevropa endi o‘z birligini, raqobatbardoshligini va mudofaasini o‘z shartlari bilan mustahkamlashi kerak, AQShning ta’rifiga ko‘ra emas.”[10]

Osiyo (Xitoy). Hujjatda Osiyo bo‘limi “B. Asia: Win the Economic Future, Prevent Military Confrontation” ya’ni Iqtisodiy kelajakni yutib olish, harbiy to‘qnashuvning oldini olish deb nomlangan. Bu qismda Osiyo ayniqsa, Hind-Tinch okeani mintaqasi 21-asrning asosiy iqtisodiy va geosiyosiy jang maydonid deb baholanadi. Prezident Trampning Xitoyga nisbatan siyosati hujjatda Prezident Tramp yolg‘iz o‘zi 30 yildan ortiq davom etgan noto‘g‘ri fikrni o‘zgartirdi: AQSh bozorlarini Xitoyga ochish, amerikalik kompaniyalarni Xitoyga investitsiya qilish va ishlab chiqarishni Xitoyga ko‘chirish orqali Xitoyni “qoidalarga asoslangan xalqaro tartib”ga kiritish mumkin degan umid amalga oshmadi. Aksincha, Xitoy boyib, kuchayib ketdi va bu boylik va kuchdan o‘z manfaati uchun foydalandi. Oldingi to‘rt nafar prezident davridagi AQSh elitasi bu jarayonda yo Xitoy strategiyasiga yordam berdi yoki uni inkor etdi.

Hind-Tinch okeani mintaqasining ahamiyati bugungi kunda jahon YaIMining deyarli yarmi va uchdan bir qismini tashkil etadi. Bu ulush XXI asr davomida yanada o‘sishi aniq. Shuning uchun Hind-Tinch okeani mintaqasi kelajakning eng muhim iqtisodiy va geosiyosiy jang maydonlaridan biriga aylanadi. AQSh o‘zida gullab-yashnashi uchun bu mintaqada muvaffaqiyatli raqobatlashishi muhim ekanligi ta’kidlanadi. Xitoy bilan iqtisodiy munosabatlar AQSh uchun muhim ekanligi va D.Tramp ushbu munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashi bir necha bor ta’kidlangan. “Kelgusida biz Xitoy bilan iqtisodiy munosabatlarni qayta muvozanatlashtiramiz, o‘zaro manfaat va adolatni birinchi o‘ringa qo‘yamiz hamda

AQSh iqtisodiy mustaqilligini tiklaymiz. Savdo muvozanatli bo‘lishi va sezgir bo‘lmagan yo‘nalishlarga qaratilishi kerak. Agar biz o‘sish yo‘lida davom etsak va Pekin bilan haqiqatan ham o‘zaro foydali munosabatlarni saqlab qolsak, 2025-yildagi 30 trillion dollarlik iqtisodiyotimizni 2030-yillarda 40 trillion dollarga yetkazishimiz mumkin. Bu bizga dunyodagi yetakchi iqtisodiyot sifatidagi mavqeimizni saqlashga yordam beradi.” deyiladi AQSh milliy xavfsizlik strategiyasida [3]. Ammo AQSh o‘z strategiyasida Xitoy bilan iqtisodiy munosabatlarni qo‘llab quvvatlasada, Xitoyni strategik raqib sifatida ko‘radi. Xitoy AQSh milliy xavfsizlik strategiyasida “Non-hemispheric competitor” (“G‘arbiy yarimshardan tashqaridagi raqobatchi”) sifatida ham juda ko‘p marotaba tilgan olingan. Vaziyatga umumiy qarasak Xitoy hujjatda eng ko‘p yodga olingan davlatdir, bilvosita va bevosita yigirma martadan ko‘proq tilga olingan. Yuqorida aytganimizdek, AQSh Xitoy bilan iqtisodiy munosabatlarni qo‘llasada, o‘z ittifoqchilari bilan Xitoyni muvozanatda ushlashga chaqiradi. AQSh milliy xavfsizlik strategiyasiga nisbatan Xitoyda faoliyat olib boruvchi turli aql markazlari o‘z tahlillarini bildirgan. Xususan, Xitoydagi Renmin universiteti qoshidagi Chongyang moliyaviy tadqiqotlar instituti (Chongyang Institute for Financial Studies, RDCY) ham AQSh milliy xavfsizlik strategiyasi doirasida turli tahlillarni o‘tkazgan [11]. Unda aytilishicha Rasmiy Pekin ushbu hujjatga nisbatan hali hech qanday jiddiy munosabat bildirmagan va shu orqali ikki davlat o‘rtasidagi bahorda bo‘ladigan sammitda AQSh bilan turli kelishuvlarga erishmoqchi ekanligi ta’kidlanadi.

Shu bilan birga ushbu tahlilda AQSh Xitoyga qarshi bo‘lgan to‘rt yo‘nalishda mag‘lub bo‘ldi deb aytadi, ular: harbiy, mafkuraviy, iqtisodiy va ikki davlat o‘rtasidagi savdo urushida AQShni mag‘lub deb ataydi va bu sabablar esa AQShni Xitoyni “near-pear competitor” yoki “Non-hemispheric competitor” ya’ni umumiy aytganda kuchlar nisbati eng yaqin bo‘lgan strategik raqib sifatida ko‘rishga majbur bo‘ldi. Yuqorida AQSh o‘z ko‘plab ittifoqchilariga ushbu rasmiy hujjat orqali hurmatsizlik va ishonchsizlik qilganini muhokama etgan edik. Rasmiy Pekin esa bu vaziyatni imkoniyat sifatida ko‘rishi ham ko‘plab Xitoyda faoliyat olib boruvchi aql markazlarining tahlillarida bayon etilgan. Xususan, Xitoy Davlat xavfsizligi vazirligiga aloqador Xitoy zamonaviy xalqaro munosabatlar instituti (CICIR) [11] ning mintaqa bo‘yicha ekspertlari ta’kidlaganidek, AQSh milliy xavfsizlik strategiyasi Yaponiya va Janubiy Koreyadan asosiy mudofaa mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishni talab qilishi, shu bilan birga Filippin kabi ittifoqdoshlarni e’tiborsiz qoldirishi, tizimli muvozanatsizlikni yaratadi. Bunda AQSh himoya haqi talab qilmoqda va ayni paytda global strategik chekinishni amalga oshirmoqda (CICIR, 9-dekabr). Bu holat Xitoy Xalq Respublikasi uchun o‘z atrofidagi mintaqani iqtisodiy vositalar orqali barqarorlashtirish uchun strategik imkoniyat yaratadi, chunki AQShning ishonchliligi pasayib bormoqda. Shu bilan birga Xitoy diplomatik yoki o‘zaro munosabatlari yaxshi bo‘lmagan davlatlari bilan ham ushbu imkoniyatdan foydalangan holda yaqinlashib olishi mumkin kabi fikrlar Xitoy aql markazlarining tahlillarida kuzatildi. Shu bilan birga ushbu ikki davlat o‘rtasidagi eng og‘ir muammolardan biri bu Tayvan masalasi.

AQSh Milliy xavfsizlik strategiyasi Tayvan bo‘yicha keskin va qattiq til ishlatgan bo‘lib, “harbiy ustunlikni saqlab qolish”ni asosiy ustuvorlik deb atagan. Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tomonidan strategiyaning ushbu bo‘limiga berilgan javoblar sokin kinoya bilan to‘la bo‘lib, Tayvanni maqomini AQSh uchun “hamfikr sherik” emas, balki geosiyosiy aktiv sifatida ko‘rib chiqilishiga e’tibor qaratmoqda. Harbiy sohada tajribaga ega kuzatuvchilar va olimlar ta’kidlaganidek, AQSh Milliy xavfsizlik strategiyasi Tayvanning yarim o‘tkazgichlar yetkazib berish zanjirlari va global savdo yo‘llaridagi markaziy o‘rniga katta e’tibor qaratgan, ammo demokratik qadriyatlar haqida deyarli gapirmagan.

Yaqin Sharq. AQSh Yaqin sharqqa nisbatan munosabati asosan shunday izohlaydi: “Yaqin Sharq yarim asrdan ortiq vaqt davomida AQSh tashqi siyosatida birinchi o‘rinda turgan edi. Buning sabablari aniq: mintaqa dunyodagi eng muhim energiya yetkazib beruvchisi bo‘lgan, superpowerlar ya’ni yirik kuchlar raqobati maydoni hisoblangan va mojarolar butun dunyoga tarqalishi mumkin bo‘lgan xavf tug‘dirgan.”. Ammo, ushbu sabablardan ayrimlari, xususan ikkitasini o‘zgarganligi hujjatda ba’yon etiladi. Birinchisi energiya ta’minoti diversifikatsiya qilingan va AQSh yana energiya eksportchisi bo‘lib qolganligi shu bilan birgalikda, yirik kuchlar raqobati “buyuk davlatlar o‘rtasidagi kurash”ga aylangan, unda AQSh eng qulay pozitsiyada turibdi. AQShning Yaqin Sharqdagi asosiy manfaatlari o‘zgarmagan, lekin kamroq resurs bilan ta’minlanadi: fors ko‘rfazi energiya manbalarining dushman nazoratiga tushmasligini ta’minlash, muhim dengiz bo‘g‘ozlari (Hormuz bo‘g‘ozi, Qizil dengiz) ni ochiq saqlash. Shularga qo‘shimcha ravishda terrorizmning mintaqadan AQSh va uning manfaatlariga qarshi eksportini oldini olish. So‘nggi maqsad sifatida Isroil xavfsizligini kafolatlash e’tirof etiladi.

Yaqin Sharq AQSh uchun strategik ahamiyatini yo‘qotmagan, lekin uning o‘rni qayta belgilangan. AQSh bu mintaqada “ko‘p narsani hal qilgan” deb hisoblaydi va endi asosiy e’tiborni Hind-Tinch okeani mintaqasiga, Xitoy raqobati va ichki iqtisodiy kuchga qaratmoqda. Mintaqa hamkorlari (Isroil va Fors ko‘rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashi davlatlari) ko‘proq mas’uliyat olishi kutilmoqda. Lekin shunga qaramasdan AQSh tashqi siyosati bugungi kunda mutloq teskari vazifalarni bajarmoqda, xususan iqtisodiy tomondan eng kuchli bo‘lishni ta’kidlagan hukumat bugun Yaqin sharqda urush olib bormoqda shu sababli bir tomondan harbiy harajatlarning ortishi, ikkinchi tomondan esa dunyo iqtisodiy hamjamiyati uchun muhim bo‘lgan, dunyo neftining 20% o‘tadigan Hormuz bo‘g‘ozini ham yopilishiga sabab bo‘ldi. Ushbu sabablar esa dunyodagi gaz va neft zaxiralariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Umuman olganda AQSh o‘zidan ham ko‘proq butun dunyoga zarar yetkazmoqda, bu esa D.Trampning oraliq saylovlardagi holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Afrika. Bugungi kunda Afrika yirik davlatlarning e’tiborini tortayotgan mintaqalardan biri sanaladi. Xususan Xitoy ushbu mintaqada faol tashqi siyosat olib bormoqda, shu bilan birgalikda investitsion loyihalarini ham ko‘paytirmoqda. AQSh Milliy xavfsizlik strategiyasi umumiy 33 betdan iborat bo‘lsa, shundan atigi yarim beti Afrikaga tegishlidir. Hujjatdagi Afrika uchun atalgan qismning asosiy xulosasi, AQSh Afrikadan turli qazilmalar, ayniqsa kritik minerallar borasida resurs sifatida foydalanib Xitoyga bog‘liqlikni kamaytirmoqchi va raqobatni davom ettirmoqchi. Ammo, bu nafaqat Afrikadagi soha mutaxasislari, olimlar, aql markazlarining e’tiborini tortdi va balki butun jahon tahlilchilari ham ushbu holatni muhokama qildi. Hatto ayrim AQShda faoliyat olib boruvchi aql markazlari ushbu munosabatni tanqid ham qildi. Xususan, Stimson [7] aql markazining tahliliy materialida, AQSh Afrika bilan ittifoqdosh yoki iqtisodiy hamkor emas balki, Xitoy bilan geosiyosiy, geoiqtisodiy raqobatda ma’lum bir vosita ya’ni resurs markazi sifatida qarashini ochib bergan. Ammo bu Vashintongga qimmatga tushishi mumkinligi ham ba’yon etiladi. Afrikaning mintaqah sifatidagi xususiyatlariga to‘xtalsak, bugungi kunda u 1.4 milliard ya’ni dunyo aholisining 16,9 foizini, kritik minerallarning esa 30 foiziga egalik qiladi. 2050-yilga borib esa, dunyo aholisining 25 foizi shu mintaqada yashashi prognoz qilingan ham edi. AQSh esa kritik minerallarning 12 turiga to‘liq qaram, 28 turiga esa 50% qaram hisoblanadi [11]. Bu esa AQSh Afrikaga chindan ham geoiqtisodiy “pitstop” sifatida qarashini ehtimoliy isboti sanaladi.

XULOSA Umumiy qilib aytganda, AQSh Milliy xavfsizlik strategiyasi bugungi kunda AQSh tashqi siyosatidagi muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Hujjatga ko‘ra AQSh o‘z oldiga barcha maqsad va vazifalarini aniq qilib belgilab olgan. Qo‘shimcha ravishda esa ayrim xatolarini ham yodga olib ularni, tan olgan. Hujjatni chuqurroq o‘rganish uchun uni ikki qismga bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Birinchi qismda asosiy qahramon AQSh, ikkinchi qismdagi senariydagi asosiy aktorlar AQSh va turli mintaqa va davlatlardir. Hujjatda ko‘ra AQSh o‘z kelajagini iqtisodiy rivojlanishga bog‘lamoqchi. Mintaqalarga kelsak, munosabatlar o‘zgargan. Yevropa bilan munosabatlarda inqiroz, Osiyo bilan esa iqtisodiy hamkorlikni ko‘zlagan, Xitoy esa strategik raqib sifatida ko‘rilgan. Afrika bilan munosabatlarda o‘zgarish bordek tuyuladi, ammo baribir asosiy maqsad resurslar ekanligini bilish unchalik mushkul emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Michael E. O‘Hanlon. Retrieved from https://www.brookings.edu/articles/breaking-down-trumps-2025-national-security-strategy
2. Brookings aql markazi. Retrieved from https://www.brookings.edu
3. AQSh milliy xavfsizlik strategiyasi. Retrieved from https://www.whitehouse.gov/wp-content/uploads/2025/12/2025-National-Security-Strategy.pdf
4. CSIS – center for strategic & international studies. Retrieved from https://www.csis.org/
5. ECFRning (European council on foreign relations). Retrieved from https://ecfr.eu/
6. Xitoy Xalq Universiteti (Renmin University of China) qoshidagi RDCY aql markazi. Retrieved from http://rdcy.ruc.edu.cn/
7. Stimson Center. Retrieved from https://www.stimson.org/
8. FPRI (foreign policy research institute). Retrieved from https://www.fpri.org/
9. Germaniya kanslerining AQSh milliy xavfsizlik strategiyasiga munosabati. Retrieved from https://www.dw.com/en/german-chancellor-some-of-us-security-plan-unacceptable/a-75074744
10. ECFRning tahliliy posti. Retrieved from https://ecfr.eu/article/why-trumps-national-security-strategy-is-a-geoeconomic-trap-for-europe
11. AQShning kritik minerallar bo‘yicha qaramligi. Retrieved from https://www.cfr.org/articles/us-critical-minerals-dilemma-what-know